Shuningdek, iqtisodiy-matematik tahlil usullaridan foydalanilib, parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarning oʻzaro bogʻliqligi oʻrganildi. Bunda korrelyatsion va regressiya tahlili vositalari yordamida yem xarajatlari, investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulot hajmi oʻrtasidagi munosabatlar baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini taʼminlash maqsadida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarni umumlashtirish jarayonida iqtisodiy tahlil, ekspert baholash va mantiqiy xulosalash usullari qoʻllanildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar mintaqalarda parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ishimizda Surxondaryo viloyati misolida parrandachilik mahsulotlari yetishtirishning samaradorlik darajasini baholash olib borildi. Surxondaryo viloyati odatda, oʻzining tabiiy-iqlim sharoitlari, yer va suv resurslarining mavjudligi hamda aholi bandligini taʼminlash imkoniyatlari jihatidan parrandachilikni rivojlantirish uchun qulay mintaqalardan biri sanaladi. Viloyatda parrandachilik mahsulotlari - goʻsht va tuxum ishlab chiqarish orqali aholi isteʼmol talabini qondirish, hududlararo oziq-ovqat balansini barqarorlashtirish hamda ortiqcha mahsulotlarni boshqa viloyatlarga yetkazib berish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, viloyatda mavjud infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi hamda ilmiy asoslangan yondashuvlarning yetishmasligi mahsulot yetishtirish samaradorligiga maʼlum darajada salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Quyida biz tomonimizdan Surxondaryo viloyatida parrandachilik mahsulotlari(goʻsht, tuxum) yetishtirish soʻnggi 15 yilda rivojlanish tendensiyasi hamda oxirgi 5 yillik maʼlumotlar asosida hozirgi real samaradorlik darajasini baholash amalga oshirildi. Birinchi bosqichda taklif etilayotgan koʻrsatkichlar tizimi orqali koʻrsatkichlarning meʼyorlashtirilgan qiymatlari hisoblanib, ularning umumiy oʻrtacha qiymatlari aniqlandi. Asosiy koʻrsatkichlar sifatida tuxum ishlab chiqarishning integrallashgan samaradorlik indeksi tanlab olindi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatdiki, mintaqalarda parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholashda eng maqbul yondashuv – integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash usulidir. Bu usulda biz tomonimizdan ozuqa sarfining mahsuldorlik koeffitsiyentii (), xarajatlar rentabelligi(yoki ishlab chiqarish xarajatlari qaytimi) (), mehnat unumdorligi () va asosiy vositalar qaytimi(fond qaytimi) () hisobga olindi. Har bir koʻrsatkichning yetishtirish samaradorligiga taʼsiri turlicha boʻlishi sababli, har biriga alohida vazn **()** berdik. Maʼlumki vazn **()** har bir koʻrsatkichlarning indeksni hisoblashdagi nisbiy ahamiyatini belgilaydi. Masalan, ozuqa sarfining mahsuldorlik koeffitsiyentii yoki xarajatlar rentabelligi oʻzgarib turishi samaradorlik holatiga

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

ko'proq ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun ular yuqori vaznga ega bo'ladi. Aksincha, ba'zi ko'rsatkichlar parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligi darajasiga ta'sir qilishda kamroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu holatda ular past vaznga ega bo'ladi.

Yuqoridagilar asosida mintaqalarda parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirishning integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash formulasi quyidagi ko'rinishga keltirildi:

$$I_T=(M_K)\omega^1 *(R_X)\ \omega^2 *(U_M)\ \omega^3\ (A_F)\omega^4$$

Yuqorida taklif etilgan uslubiyat bo'yicha viloyatda parrandachilik mahsulotlari(tuxum) yetishtirish samaradorlik darajasini baholash amalga oshirildi.

1-jadval

Tuxum ishlab chiqarishning integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash mezonlari va ko'rsatkich qiymatlari[2]

| № | Mezonlar | Ko'rsatkich ifodasi | Ko'rsatkich vazni |
|---|---|---|---|
| 1 | Ozuqa sarfining mahsuldorlik koeffitsiyenti | $M_K$ | 0.35 |
| 2 | Xarajatlar rentabelligi (yoki ishlab chiqarish xarajatlari qaytimi) | $R_X$ | 0.30 |
| 3 | Mehnat unumdorligi | $U_M$ | 0.20 |
| 4 | Asosiy vositalar qaytimi(fond qaytimi) | $A_F$ | 0.15 |

**Ozuqa sarfining mahsuldorlik koeffitsiyenti ( $M_K$).** Bu ko'rsatkich sarflangan ozuqaning har bir birligiga to'g'ri keladigan tuxum ishlab chiqarish hajmini aks ettiradi. Ishlab chiqarish jarayonida ozuqa resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasini, ishlab chiqarishning biologik-texnologik samaradorligini ifodalaydi. Ozuqa sarfining mahsuldorlik koeffitsiyentii (TK)ni quyidagicha hisoblaymiz:

$$M_K = \frac{V_T}{V_O}$$

Bu yerda: $V_T$ - mahalliy tuxum ishlab chiqarish hajmi;

$V_O$ - tuxum ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ozuqaning umumiy hajmi.

Iqtisodiy jihatdan bu ko'rsatkich parrandachilik tarmog'ida ozuqa xarajatlari umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini tashkil etganligi sababli mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarish intensivligi, innovatsion oziqlantirish texnologiyalarining samaradorligini baholashda muhim.

**Xarajatlar rentabelligi ($R_X$).** Bu ko'rsatkich realizatsiyadan olingan tushumning jami ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati sifatida ishlab chiqarish jarayonining moliyaviy samaradorligini ifodalaydi. Mazkur ifoda ishlab chiqarish tannarxining asoslanganligini, narx va xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni hamda foyda shakllanish jarayonini kompleks ravishda baholash imkonini beradi. Shartlar quyidagicha:

**$R_X$>1** bo'lsa, xarajatlar qoplanishini va foyda yuzaga kelishini anglatadi.

**$R_X$=1** bo'lsa, ishlab chiqarish o'zini o'zi qoplashini, ya'ni nol rentabellikni ifodalaydi.

**$R_X$<1** bo'lishi esa ishlab chiqarish zarar bilan ishlayotganligi, moliyaviy barqarorlik buzilganligini ko'rsatadi.

Xarajatlar rentabelligi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_X = \frac{T}{X}$$

Bu yerda: **T –** belgilangan davr mobaynida yetishtirilgan tuxumdan tushgan tushum qiymati;

**X–** jami xarajatlar miqdori.

Mavjud statistik ma'lumotlarga tayangan holda hisoblashlardan shuni ko'rish mumkin: Surxondaryo viloyatida so'ngi o'n besh yil davomida **$R_X$>1** ekanligi, bu esa mintaqada foyda yuzaga kelganligini anglatadi.

**Mehnat unumdorligi ($U_M$).** Ushbu ko'rsatkich tuxum ishlab chiqarish hajmining ishchilar soniga nisbati mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Mazkur ko'rsatkich bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini, mehnat sig'imining kamayishini hamda ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy va texnologik

2 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.

darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashuvi va avtomatlashtirilishi, ish vaqtidan samarali foydalanish, ilg'or boshqaruv usullarining joriy etilishi natijasida yuzaga keladi. Uning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$U_M = \frac{V_T}{I}$$

Bu yerda: **$V_T$** – tuxum ishlab chiqarish hajmi;

**I –** viloyatda ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan ishchilar soni.

**Asosiy vositalar qaytimi ($A_F$)** Asosiy vositalar qaytimi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining asosiy vositalar qiymatiga nisbati sifatida kapital resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. Mazkur ko'rsatkich mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini, texnik jihozlanganlik holatini hamda kapital qo'yilmalarning iqtisodiy natijadorligini tavsiflaydi. Uning o'sishi asosiy vositalardan foydalanishning intensivlashganini, mahsulot hajmining mavjud ishlab chiqarish fondlari hisobiga ortib borayotganini va fond sig'imining kamayib borayotganini anglatadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

Bu yerda: **$V_T$ –** tuxum ishlab chiqarish hajmi;

**A –** asosiy vositalar qiymati.

Yuqoridagi formula asosida ishlab chiqilgan asosiy vositalar qaytimi uchun me'yoriy koeffitsiyentlar shkalasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Asosiy vositalar qaytimi uchun me'yoriy koeffitsiyentlarshkalasi[3].

| Qiymati | Darajasi | Ta'sir holati |
|---|---|---|
| 0,5 gacha | Juda past | Asosiy vositalardan foydalanish samarasiz, quvvatlar band emas |
| 0,5-1,0 | Past | Kapital sig'imi yuqori, ishlab chiqarish hajmi yetarlicha emas |
| 1,0-1,5 | O'rta daraja | Asosiy vositalardan foydalanish qoniqarli |
| 1,5-2,0 | Yaxshi | Fondlardan samarali foydalanilmoqda |
| 2 dan yuqori | Yuqori | Kapitaldan intensiv foydalanish, yuqori ishlab chiqarish samaradorligi |

Tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida tuxum ishlab chiqarish yo'nalishida asosiy vositalar qaytimi ko'rsatkichi so'nggi o'n besh yil davomida **0,5** gacha bo'lgan past darajada shakllangan.

Surxondaryo viloyatida tuxum ishlab chiqarishda asosiy vositalar qaytimi 0,5 gacha bo'lishi ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Bu holat mavjud quvvatlarning to'liq ishlatilmasligi, texnika va texnologiya darajasining pastligi hamda ishlab chiqarishning asosan ekstensiv usul bilan rivojlanayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, past ko'rsatkich tarmoqda modernizatsiya jarayonlari davom etayotgani va yangi asosiy vositalar joriy etilgani, shu sababli ishlab chiqarish hajmi hali to'liq quvvatga chiqmaganini ham anglatadi.

Natijalarni yanada tushunarli qilish uchun, 2010-2025 yillar oralig'idagi Surxondaryo viloyati statistik ma'lumotlarini taqdim etamiz.

3-jadval.

Surxondaryo viloyatida oxirgi 15 yilda parrandachilik mahsulotlari (tuxum) yetishtirish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholashning ko'rsatkichlar qiymatlari uchun statistik ma'lumotlar[4].

| Yillar | Ishlab chiqarish hajmi(ming donada) | Jami xarajatlar | Asosiy ishlab chiqarish fondlar qiymati (kapital) | Ishchilar soni | Ozuqa miqdori (kg, tonna) | Tushum |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 156147 | 30882704,7 | 48254226,0 | 16450 | 184,1 | 38603380,8 |
| 2011 | 171735 | 33426832,8 | 52229426,4 | 18700 | 195,1 | 41783541,1 |
| 2012 | 190507 | 35135063,6 | 54898536,9 | 20100 | 226,1 | 43918829,5 |

3 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.

4 Jadval muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2013 | 214992 | 38309195,5 | 59858118,0 | 21700 | 247,1 | 47886494,4 |
| 2014 | 239480 | 40505371,2 | 63289642,6 | 25400 | 267,4 | 50631714,1 |
| 2015 | 273188 | 47138312,8 | 73653613,9 | 27250 | 290,4 | 58922891,1 |
| 2016 | 311780 | 48925539,2 | 76446155,1 | 28403 | 319,5 | 61156924,1 |
| 2017 | 334002 | 57538561,3 | 89904002,0 | 27806 | 363,6 | 71923201,6 |
| 2018 | 463757 | 53126554,7 | 83010241,8 | 29451 | 420,6 | 66408193,4 |
| 2019 | 513003 | 33732842,1 | 52707565,6 | 30200 | 431,2 | 42166052,5 |
| 2020 | 524743 | 48929814,9 | 76452835,9 | 30450 | 433,2 | 61162268,7 |
| 2021 | 520971 | 69611937,9 | 108768653,0 | 30600 | 457,8 | 87014922,4 |
| 2022 | 542140 | 68236912,1 | 106620175,1 | 30650 | 461,7 | 85296140,1 |
| 2023 | 589068 | 73864417,1 | 115413151,8 | 30700 | 475,5 | 92330521,4 |
| 2024 | 594363 | 74225439,4 | 115977249,1 | 31800 | 504,8 | 92781799,3 |
| 2025 | 602103 | 77219534,8 | 120655523,0 | 32100 | 525,0 | 96524418,4 |

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida barcha samaradorlik indekslari bo'yicha baholash ko'rsatkichlari aniqlandi (4-jadval).

4-jadval.
Surxondaryo viloyatida oxirgi 15 yilda parrandachilik mahsulotlari (tuxum) yetishtirish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholashning ko'rsatkichlar qiymatlari[5].

| Yillar | $(M_K)^{0,35}$ | $(R_X)^{0,30}$ | $(U_M)^{0,20}$ | $(A_F)^{0,15}$ | $I_T$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 10,59192 | 1,069235 | 1,56846 | 0,423155 | 0 |
| 2011 | 10,73083 | 1,069235 | 1,558129 | 0,424172 | 1,801036 |
| 2012 | 10,56754 | 1,069235 | 1,567989 | 0,427615 | 1,608011 |
| 2013 | 10,68623 | 1,069235 | 1,581949 | 0,429828 | 6,83685 |
| 2014 | 10,79521 | 1,069235 | 1,566344 | 0,433202 | 8,535636 |
| 2015 | 10,98249 | 1,069235 | 1,585693 | 0,431907 | 14,22089 |
| 2016 | 11,12467 | 1,069235 | 1,614718 | 0,438101 | 24,28839 |
| 2017 | 10,89175 | 1,069235 | 1,644077 | 0,432012 | 20,42109 |
| 2018 | 11,60997 | 1,069235 | 1,735554 | 0,459276 | 64,3322 |
| 2019 | 11,92382 | 1,069235 | 1,762068 | 0,499157 | 100 |
| 2020 | 11,99932 | 1,069235 | 1,767144 | 0,473678 | 87,17454 |
| 2021 | 11,73908 | 1,069235 | 1,762862 | 0,448793 | 65,2927 |
| 2022 | 11,86938 | 1,069235 | 1,776381 | 0,452836 | 72,82203 |
| 2023 | 12,09387 | 1,069235 | 1,805533 | 0,453092 | 82,82372 |
| 2024 | 11,88021 | 1,069235 | 1,796077 | 0,453369 | 76,4674 |
| 2025 | 11,77128 | 1,069235 | 1,797352 | 0,451563 | 72,99395 |

Tadqiqot jarayonida biz tomonidan mintaqalarda parrandachilik mahsulotlarini yetishtirish darajasini yanada tizimli va har tomonlama baholash imkonini beruvchi integrallashgan samaradorlik indeksi asosidagi baholash shkalasi ishlab chiqildi (5-jadval). Ushbu shkala nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini umumiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilishga, balki turli iqtisodiy, texnik va ishlab chiqarish parametrlarini birlashtirib, ularning o'zaro ta'sirini baholashga ham imkon yaratadi.

5-jadval.
Yetishtirish darajasini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash shkalasi[6].

| Chegaraviy koeffitsiyenti | Tavsifiy daraja |
|---|---|
| $0 \le I_T \le 40$ | Past darajadagi samaradorlik |
| $40 \le_T \le 55$ | Qoniqarsiz darajadagi samaradorik |
| $55 \le I_T \le 70$ | O'rta darajadagi samaradorik |
| $70 \le I_T \le 85$ | Yaxshi darajadagi samaradorik |
| $85 \le I_T \le 100$ | Yuqori darajadagi samaradorik |

5 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.
6 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida hisoblangan.

So‘nggi besh va o‘n besh yil davomida Surxondaryo viloyatida tuxum ishlab chiqarish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash natijalari mos ravishda 74,5 (oxirgi besh yillik) va 46,64 (oxirgi o‘n besh yillik) qiymatiga ega bo‘ldi.




**1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2010-2025-yillar oralig‘ida parrandachilik mahsulotlari (tuxum) yetishtirish darajasini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash dinamikasi[7].**

Xulosa qilib aytganda, so‘ngi 15 yil uchun hisoblangan integrallashgan samaradorlik indeksi 47 ni tashkil etdi, bu esa “qoniqarsiz” darajani bildiradi. Ushbu natija viloyatdagi tuxum ishlab chiqarish tizimi uzoq muddat davomida barqarorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan sust rivojlanganini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqladiki, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlash masalalari yetarlicha e’tibor qaratilmagan, natijada ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari beqaror bo‘lib qolgan.

Biroq, so‘ngi 5 yil davomida integrallashgan samaradorlik indeksi 74 ga yetdi, bu “yaxshi” daraja sifatida baholandi. Ushbu natija viloyat parrandachilik tizimida intensiv rivojlanish bosqichining boshlanishini ko‘rsatmoqda. Ya’ni, so‘nggi yillarda mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishlar, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda resurslarni samarali boshqarish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshgan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyatida tuxum ishlab chiqarish tizimi uzoq muddat davomida past samaradorlik bosqichidan o‘tib, so‘nggi yillarda intensiv rivojlanish bosqichiga kirgan. Bu tendensiya parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning strategik rejalashtirilgan rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari viloyatning parrandachilik tizimini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlarini belgilashda muhim.

Endi viloyatning parrandachilik mahsulotlari (parranda go‘shti) yetishtirishda samaradorlikni oshirish darajasini navbatdagi usul - universal integrallashgan samaradorlik indeksi tahlili asosida baholaymiz. Bu usuldan aniqlangan natija hududning shu qiymat ko‘rsatkichi bo‘yicha yetishtirishning samaradorlik darajasini ifodalaydi. Formulasi quyidagicha:

$$I_{IPS} = \sqrt[5]{K_{rent} * K_{mehnat} * K_{ozuqa} * K_{fond} * K_{intensiv}}$$

Mazkur mezon ko‘p omilli ishlab chiqarish funksiyasiga mos kelganligi sababli resurslardan foydalanish samaradorligini tizimli baholaydi, intensiv rivojlanish modelini aks ettiradi hamda hududlar va yillar kesimida taqqoslash imkonini beradi. Quyida har bitta ko‘rsatkichni aniqlovchi formulalar keltirib o‘tilgan (6-jadval).

7 Jadval muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

6-jadval.
Integrallashgan parrandachilik samaradorlik indeksi mezoni uchun zaruriy ko'rsatkichlar[8].

| Belgilanishi | Formulasi | Tavsifi |
|---|---|---|
| $K_{rent}$ | $\frac{T}{X}$ | T- umumiy tushum<br>X- umumiy xarajatlar |
| $K_{mehnat}$ | $\frac{T_g}{I}$ | - go'sht yetishtirish hajmi<br>-go'sht yetishtirishda faoliyat ko'rsatayotgan ishchilar soni |
| $K_{ozuqa}$ | $\frac{T_g}{X_o}$ | - go'sht yetishtirish hajmi<br>-go'sht yetishtirish uchun sarflanayotgan ozuqa hajmi |
| $K_{fond}$ | $\frac{T_g}{A}$ | - go'sht yetishtirish hajmi<br>A-asosiy vositalar qiymati |
| $K_{intensiv}$ | $\frac{V_g}{I * V_o}$ | -go'sht yetishtirishda faoliyat ko'rsatayotgan ishchilar soni<br>-go'sht yetishtirish uchun sarflanayotgan ozuqa hajmi |

Mavjud statistik ma'lumotlar asosida 2010-2025-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida parranda go'shti yetishtirishda samaradorlikni oshirishni integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholandi. Natija quyidagi jadvalda ifodalanadi (7-rasm).

7-jadval.
Surxondaryo viloyatida oxirgi 15 yilda parranda go'shti yetishtirish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholashning ko'rsatkichlar qiymatlari[9].

| Yillar | $K_{rent}$ | $K_{mehnat}$ | $K_{ozuqa}$ | $K_{fond}$ | $K_{intensiv}$ | $I_{IPS}$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 1,25 | 0,133799 | 11,95598 | 4,56126E-05 | 0,000727 | 1,32582E-08 |
| 2011 | 1,25 | 0,120481 | 11,54964 | 4,31366E-05 | 0,000618 | 9,26832E-09 |
| 2012 | 1,25 | 0,114677 | 10,19528 | 4,19865E-05 | 0,000507 | 6,22483E-09 |
| 2013 | 1,25 | 0,112811 | 9,905758 | 4,08967E-05 | 0,000456 | 5,2155E-09 |
| 2014 | 1,25 | 0,099409 | 9,442359 | 3,98959E-05 | 0,000372 | 3,48036E-09 |
| 2015 | 1,25 | 0,097945 | 9,190043 | 3,62372E-05 | 0,000337 | 2,75008E-09 |
| 2016 | 1,25 | 0,095307 | 8,472905 | 3,54105E-05 | 0,000298 | 2,13254E-09 |
| 2017 | 1,25 | 0,099115 | 7,579946 | 3,06549E-05 | 0,000273 | 1,56955E-09 |
| 2018 | 1,25 | 0,086211 | 6,035969 | 3,05866E-05 | 0,000205 | 8,15507E-10 |
| 2019 | 1,25 | 0,053146 | 3,722438 | 3,0451E-05 | 0,000123 | 1,85634E-10 |
| 2020 | 1,25 | 0,066437 | 4,670394 | 2,64608E-05 | 0,000153 | 3,14826E-10 |
| 2021 | 1,25 | 0,094248 | 6,299103 | 2,6515E-05 | 0,000206 | 8,10105E-10 |
| 2022 | 1,25 | 0,089201 | 5,922184 | 2,56424E-05 | 0,000193 | 6,54336E-10 |
| 2023 | 1,25 | 0,093355 | 6,027745 | 2,48325E-05 | 0,000196 | 6,85915E-10 |
| 2024 | 1,25 | 0,090535 | 5,70317 | 2,48238E-05 | 0,000179 | 5,74684E-10 |
| 2025 | 1,25 | 0,090467 | 5,531239 | 2,40685E-05 | 0,000172 | 5,18825E-10 |

Integrallashgan samaradorlik indeksi qiymati $\mathbf{I_{IPS}<0}$ bo'lganligi hamda so'ngi o'n besh yillik kuzatishlar hisoblanayotganligi sababli ning normallashtirilgan qiymatidan foydalanish talab qilinadi. Formula quyidagicha:

$$\mathbf{I_{norm}} = \frac{\mathbf{I_{IPS}} - \mathbf{I_{min}}}{\mathbf{I_{max}} - \mathbf{I_{min}}} * \mathbf{100}$$

Natijada, Surxondaryo viloyatida so'ngi o'n besh yil davomida parranda go'shti yetishtirish samaradorligini baholashning integrallashgan samaradorlik indeksi mezoni bo'yicha hisoblagandagi qiymat 18,97 ga teng bo'ldi.

8 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.
9 Jadval muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

5-jadval.
Yetishtirish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash shkalasi[10].

| Chegaraviy koeffitsiyenti | Tavsifiy daraja |
|---|---|
| $0<I_{IPS}<5$ | Juda past darajadagi samaradorik |
| $5<I_{IPS}<10$ | Past darajadagi samaradorik |
| $10<I_{IPS}<15$ | O'rta darajadagi samaradorik |
| $15<I_{IPS}<20$ | Yaxshi darajadagi samaradorik |
| $I_{IPS}>20$ | Yuqori darajadagi samaradorik |

Olib borilgan hisob-kitoblar natijalariga ko'ra shuni xulosa qilib aytish mumkinki, parrandachilikning go'sht yo'nalishida universal integrallashgan samaradorlik indeksi 18,9 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich tarmoqda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori darajada ekanligini va rivojlanishning intensiv modeliga o'tilganligini ifodalaydi. Shuningdek, indeksning geometrik o'rtacha asosida shakllantirilgani ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlab, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganligini ko'rsatadi.

Natijada hududda parranda go'shti tarmog'ining raqobatbardoshligi ortib borayotganligi hamda ishlab chiqarishning barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyasi shakllanganligi aniqlandi.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, Surxondaryo viloyatida parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga turli omillar ta'sir qiladi. Quyidagi 6-jadvalda ilmiy izlanishlarimiz asosida ushbu asosiy omillar va ularni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha tavsiya etiladigan chora-tadbirlar tizimli ko'rinishda keltirilgan.

6-jadval.
Surxondaryo viloyatida parrandachilik mahsulotlari ta'minotiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning boshqaruv choralarini baholash[11]

| № | Ta'sir etuvchi omillar | Ta'sir mazmuni | **Oldini olish va takomillashtirish usullari** |
|---|---|---|---|
| 1 | Oziqa bazasining yetishmasligi | Yem-xashak narxining oshishi mahsulot tannarxini ko'taradi | Mahalliy yem ishlab chiqarishni rivojlantirish, don ekinlari maydonini kengaytirish, ozuqa zaxirasini yaratish |
| 2 | Kasalliklar va veterinariya nazoratining sustligi | Parranda nobud bo'lishi va mahsulot hajmining kamayishi | Muntazam emlash, bioxavfsizlik choralarini kuchaytirish, veterinariya xizmatini takomillashtirish |
| 3 | Moliyaviy resurslarning cheklanganligi | Kichik xo'jaliklarda modernizatsiya sustligi | Imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar, investitsiya loyihalarini jalb etish |
| 4 | Zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi | Mahsuldorlik pastligi va tannarx yuqoriligi | Innovatsion inkubatorlar va avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish |
| 5 | Iqlim sharoiti (issiq harorat) | Parrandalar o'sishiga salbiy ta'sir qiladi | Ventilyatsiya tizimlarini yaxshilash, yopiq sikl asosida parvarishlash |
| 6 | Logistika va saqlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi | Mahsulot isrofi va yetkazib berishdagi uzilishlar | Sovutkichli omborlar va transport tizimini rivojlantirish |
| 7 | Bozor narxlarining beqarorligi | Ishlab chiqaruvchilar daromadining kamayishi | Uzoq muddatli shartnomalar, kooperatsiya tizimini rivojlantirish |
| 8 | Kadrlar malakasining pastligi | Samaradorlikning kamayishi | Mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish |
| 9 | Elektr energiyasi va suv ta'minotidagi uzilishlar | Ishlab chiqarish jarayonining to'xtashi | Muqobil energiya manbalaridan foydalanish (quyosh panellari), suv tejovchi texnologiyalar |

Mazkur chora-tadbirlarning izchil va samarali amalga oshirilishi viloyatda parranda mahsulotlari ishlab chiqarish natijadorligini oshirishga hamda uning samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi.

10 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.
11 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, parrandachilik tarmog'i mintaqalarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini sifatli oqsil manbalari bilan uzluksiz ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda tarmoqda ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, hududlar kesimida samaradorlik ko'rsatkichlari bir xil darajada shakllanmagan.

Tahlillar natijasida parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligiga yem-xashak bazasining holati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi, investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va boshqaruv tizimining samaradorligi sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Samaradorlikni baholashda faqat ishlab chiqarish hajmlariga emas, balki mahsulot tannarxi, rentabellik, mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish darajasiga ham e'tibor qaratish zarurligi asoslandi.

Tadqiqot davomida samaradorlikni baholashning iqtisodiy, texnologik va tashkiliy mezonlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv eng maqbul usul ekanligi aniqlandi. Mintaqalar kesimida samaradorlik darajasidagi farqlar mavjud resurslardan foydalanish sifati va innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, parrandachilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi. Bu esa tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish va ichki bozorda sifatli mahsulotlar taklifini kengaytirishga xizmat qiladi.

## TAKLIFLAR

Mintaqalarda parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini muntazam monitoring qilish maqsadida iqtisodiy va texnologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan yagona baholash tizimini joriy etish lozim.

Parrandachilik korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy energiya tejamkor va avtomatlashtirilgan texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Yem-xashak bazasini mustahkamlash hamda mahalliy xomashyo asosida sifatli omuxta yem ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mahsulot tannarxini kamaytirish zarur.

Hududlarda yuqori samaradorlikka erishgan xo'jaliklarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish va boshqa korxonalarda joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Parrandachilik tarmog'iga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish lozim.

Tarmoqda raqamli boshqaruv tizimlari, elektron monitoring va ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn nazorat qilish vositalarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish zarur.

Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish zanjirida logistika infratuzilmasini rivojlantirish, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish orqali mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish maqsadga muvofiq.

Parrandachilik korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish uchun mutaxassislarning malakasini muntazam oshirib borish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Mintaqalar kesimida samaradorlikni baholashda rentabellik, mahsuldorlik, yem konversiyasi koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi va fond qaytimi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida ekologik talablar va bioxavfsizlik standartlariga rioya etish darajasini oshirish hamda xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

Umuman olganda, mintaqalarda parrandachilik mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali tarmoqning iqtisodiy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. *Economics*. 20th Edition. New York: McGraw-Hill Education, 2023.
2. Michael P. Todaro, Stephen C. Smith. *Economic Development*. 13th Edition. Pearson Education, 2024.
3. Food and Agriculture Organization. *Poultry Development Review*. Rome, 2023.
4. Tim J. Coelli, Rao D.S.P., O'Donnell C.J., Battese G.E. *An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis*. Springer, 2024.

5. George E. Battese, Tim J. Coelli. Frontier Production Functions, Technical Efficiency and Panel Data Applications. Journal of Productivity Analysis, 2023.
6. Sh.Sh. Shodmonov, G‘afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent, 2023.
7. Abdug‘ani Abdug‘aniyev, Abdug‘aniyev A.A. *Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2024.
8. World Bank. *Transforming Agriculture for Economic Growth in Central Asia*. Washington D.C., 2024.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2024*. Paris, 2024.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz